
San'at saroyi yonidagi Qashqar ko'chasida bir qavatli uylar o'rniga 4 va 5 qavatli zamonaviy turar-joy majmuasi qurish loyihasiga kirishildi

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov viloyat sektorlari rahbarlari bilan Farg'ona shahar Farg'ona MFY Qashqar ko'chasida joylashgan 1 qavatli uylar o'rnida 4 va 5 qavatli zamonaviy turar-joy majmuasi qurish loyihasi bilan tanishdi.

Qashqar ko'chasidagi 53 ta eski uylar o'rnida barpo etiladigan ko'p qavatli zamonaviy turar-joylarning birinchi qavati savdo va maishiy xizmat shaxobchalaridan iborat bo'lishi lozimligi ta'kidlandi. Ushbu xizmat ko'rsatish ob'ektlari, San'at saroyiga kelgan farg'onaliklar hamda mehmonlar uchun qo'shimcha qulayliklar taqdim etishi qayd etildi.

Tashabbuskor tadbirkorlar hamda mutasaddilar bilan muloqot qilgan viloyat hokimi, loyihani amalga oshirishda eski xonadonlar egalarining roziligini olish eng muhim talab ekanligini ta'kidlab, rozilik bergan mulkdorlarga uy-joylarning qiymati qonunda nazarda tutilgan tartibda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishini ta'minlash shartligiga e'tibor qaratdi.

2023-04-08 17:59:49